

TOPONIMLARNING KOGNITIV-PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY ASPEKTLARI HAQIDA BA'ZI ULOHAZALAR

Nurmuhammedov Bahodir Shakarboyevich

SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada toponimlarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, denotativ komponenti, toponimik va urbanomik nominasiyalarning boshqa tamoyillari haqida fikrlar yuritilib, Toponimlar kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan o'rganilganda uning kognitiv tuzilmalarni, ya'ni insonning tafakkur va idrok etish strukturalarini ifodalovchi ekanligini ko'ramiz.

Kalit so'zlar

Connotatio, kognitiv-pragmatik, onomastika, toponim, yuqori maqomlik, lingvomadaniy, etnomadaniy, kokretlashtirish

Onomastik materiallar ma'naviy olam haqidagi ulkan madaniy axborotlar potensialiga egaligi ma'lum bolgan holda ularning lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik aspektlari to'lig'icha o'rganilgan deb baholab bo'lmaydi. Ularning madaniy-tarixiy qiymatlik axborotini tavsiflash metodologiyasini ishlab chiqish muhim vazifa sanalib kelingan. Onomastik leksikaning lingvomadaniy potentsiali va pragmatik imkoniyatlari tahlilida diaxronik yondashuv elementlari muhim sanalsada, avvalambor sinxronik yondashuvni taqoza qiladi, aks holda onimlarni tizimli to'laqonli tavsiflash imkoni bo'lmaydi

Onomastik materialga lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashuvning asosiy vazifasi – madaniy kodning madaniy semantikasi bilan til birliklari sifatida onimlarning o'zaro aloqalari mexanizmlarini tavsiflashdir. Ushbu mexanizm harakati natijasi onimlarning madaniy semantikasini qayta ifodalash hisoblanadi. Lingvomadaniy jamoaning tili uning moddiy va ma'naviy madaniyati

bilan integrallashgan bo‘ladi, qadimgi mifologik ong sinkretizmligi bilan tavsiflanadi.

Toponimlar ijtimoiy mulk maqomi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar va jamoaviy-madaniy vaziyatga aloqadorlikga ega. Toponim bilan bog‘langan “yuqori maqomlik” belgisi, ya’ni ijtimoiy – siyosiy hayotda davlatni boshqargan urug‘-qabila nomlari mobillik tabiatli sanaladi. Toponimlarni ikki karra ijtimoiy belgi sifatida ko‘rish mumkin. Toponimlarni moddiy va manaviy olam ortasidagi oraliq o‘rni lingvomadaniyatshunoslik va lingvo-pragmatika uchun anchayin qiziqarli fenomen hisoblanadi.

Toponimik tizimning asosiy parametrlari ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga bog‘liklar hisoblanadi. Bir ijtimoiy-madaniy holatlar toponimik va urbanomik nominasiyalarning boshqa tamoyillarini shakllantiradi. Toponimlar doirasida nomlarning takrorlanishi to‘lig‘icha ijtimoiy sabablar bilan bog‘langan bo‘ladi. Ijtimoiy tarixiy, hukmron mafkura, etnomadaniy jarayonlar, konkretlashtirish va qoliplash (standartlashtirish) kabi ekstralingvistik omillar ham zamonaviy tilshunoslik yondashuvlarida alohiyida qimmatlik kasb etadi.

Lingvomadaniy jamoaning atrof borliqni bilish, idroq etish va tafakkur qilish jarayonlari hosilasi toponimlarda ham o‘z ifodasini topadi. Toponimlar kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganilganda uning kognitiv tuzilmalarni, ya’ni insonning tafakkur va idrok etish strukturalarini ifodalovchi ekanligini ko‘ramiz. Toponimlarda aslini olganda, faqatgina inson, olamning an’anaviy manzarasi va uning fragmentlariga sub’ektning barcha munosabatlari haqidagi bilimlarigina emas, milliy madaniyat etalon va stereotiplarining avloddan avlodga uzatilishida lisoniy voqeliklarning programmalashgan ishtiroki kontseptuallashgan bo‘ladi.

Toponimlarni o‘rganishga kognitiv yondashuv avvalambor, uning leksik birliklarini semantik tahlil qilishni taqoza qiladi. Toponimlar nominativ birlik hisoblandi va ob’ektiv voqelikni tushuncha orqali aks ettiradigan tafakkurni ifodalaydi. Biroq nominativ birlik sifatida toponimlarning o‘ziga xos xususiyati shuki, ular avval nomlangan voqelik fragmentini nomlaydi, shu sababdan ularning

referenti ortida muayyan belgi birikkan bo‘ladi va bu ularni ikkilamchi nominativ belgi hisoblashimizga asos bo‘ladi. Toponimlar til belgisi sifatida ikki vazifani amalga oshiradi: nominativ va semantik. Semantik vazifani amalga oshirishda predmetga obrazli, mantiqan bo‘laklarga ajralmaydigan tavsif beriladi. Ayrim toponimlar ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, ulardan konnotativ komponent juda muhim sanaladi. Konnotasiya lotin tilidagi *connotatio* so‘zidan olingan bo‘lib “birgalikda anglataman” ma’nosini anglatadi. Konnotasiya til egalari ongidagi asosiy ma’no bilan turg‘un bog‘langan qo‘shimcha semantik va uslubiy elementlarni o‘z ichiga oladi; nutqiy ifodaning emosional va baho bo‘yoqlarini ifodalash va jamiyatning madaniy an‘analarini aks ettirish uchun mo‘ljallangan; o‘zida predmet va hodisalarning o‘zini emas, ularga nisbatan muayyan munosabatlarni ifodalovchi turli shakldagi pragmatik axborotlarni ifodalaydi

Toponimlarni konseptual tahlil metodlarini qo‘llash orqali tasniflab o‘rganish istiqbolli hisoblanadi. Chunki toponimlarlar muayyan etnosning olamni idrok etishi va madaniyatining milliy xususiyatini, insonlarning hayot va faoliyatini, ularning olamga munosabatini, o‘ziga xos qadriyatlar majmuasini va hokazolar haqidagi tasavvurlarni saqlaydi, umuman olam lisoniy manzarasining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rish imkonini beradi. Shunday qilib, qimmatli axborotlar toponimlar leksik-semantik aspektida qatlamli shaklda fiksasiyalanadi.

Toponimlarlar ma’nosining denotativ komponenti bir tomondan birikma anglatayotgan bir tipdagi realiya obrazi haqidagi axborotni saqlaydi, ikkinchi tomondan realemani konkret referent bilan aloqasini ta’minlaydi. Denotativ komponent u yoki bu tushunchaning ekstensionalini mujassamlashtiradi, ya’ni u yoki bu ma’no qanday leksik-semantik guruh bilan o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. Yuqoridagilardan ma’noning denotativ komponenti olamning tuzilish jarayonini aks ettirishi ma’lum bo‘ladi.

Ayrim toponimlar obrazli komponenti yoki ichki shakl mental tuzilmalar – freym, stsenariya, sahna, geshtalt bilan bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Tildagi qadriyat asosli tasavvurlar muayyan xalq yoki umum insoniyat tarixida ko‘plab avlodlarning jamoaviy faoliyati natijasi hisoblanadi. Toponimlar etimologik

tomondan xalqning moddiy-madaniy, ijtimoiy–iqtisodiy hayotidagi voqe, faktlari bilan bog‘lanadi. Toponimlarning funktsional vazifasi nomga ega bo‘lgan voqelik fragmentini aks ettirib qolmasdan, ushbu nom yordamida ob‘ektga yo‘nalgan sub‘ektiv ahamiyatli biron bir ish-harakatni obrazli anglatishdan ham iborat. Toponimlarning bunday murakkab denotati ular tarkibidagi ham ish-harakat semantikasida ham ish-harakat ob‘ekti semantikasida aks etadi va bu toponimlarning murakkab ma‘noviy tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Toponimlarni aynan o‘qish orqali ichki shakl aniqlanadi, masalan “Kelinchaktosh” oronimi ma‘nosining signifikativ belgisini “toshning ayol shakliga o‘xshashligi” tashkil etadi. Ushbu birlikning ichki shakli “ayol”, “o‘xshash” belgilarini rivojlantirishga asoslangan. Bir tipli ichki shakllar majmuasi bosh obraz, kontseptual geshtalt, freym, skriptlar lisoniy reprezentasiyasini tiklashga imkon beradi. Masalan, “Faxri katak”, “Botir katak” mikrooykonimlarining bosh obrazi “ovchi”ga dalolat beradi. Bosh obrazlar muayyan madaniy kodni aks ettiradi. Yuqoridagilar antroponomik madaniy kod hisoblanadi. Ko‘rsatilgan bosh obraz aktsional madaniy kodga mos keladi. Ichki shakl lingvomadaniy jamoada shakllanib etilgan tasavvurlarni gavdalantiradi, hodisalarni anglash stereotiplarini verballashtiradi.

Toponimning baho komponenti semantik strukturada anchayin murakkab hisoblanadi. Baho kategoriyasi baho sub‘ekti, ob‘ekti, baho motivi va baho kabi komponentlardan tashkil topadi. Muayyan bir shaxs, lingvomadaniy jamoa yoki sosium baho sub‘ekti bo‘lishi mumkin. Muayyan madaniyat til shaxsi milliy xarakter xususiyatidan kelib chiqib baho ob‘ekti tanlovi va motiviga ta‘sir etishi mumkin. Muayyan bir qiymat biriktiriladigan toponim baho ob‘ekti bo‘ladi. Lingvomadaniy jamoa uchun dolzarbligidan kelib chiqib baho ob‘ektining muayyan bir ko‘rinishi yoki belgisi baholanadi va madaniy belgiga ega bo‘ladi.

Toponimlarning pragmatik aspektini tadqiq qilish ular semantikasining baholovchi, motiv-obrazli va emotiv komponentlarini tahlil qilishni qamrab oladi. Baho kategoriyasi voqelik ob‘ektlarini insonga xos bo‘lgan turli aksiologik nuqtai nazarlar bilan tavsiflash qobiliyati sabab olam lisoniy manzarasining

ajralmas qismi hisoblanadi. Baho sub'ekti ob'ekt belgilarini "yaxshi" va "yomon" kriteriyalar bilan baholash shkalasining mos zonasiga joylashtirganda rasional jarayon voqe bo'ladi. Ijobiy va salbiy belgilarning sifat va miqdoriga muvofiq ijobiy va salbiy baholar darajalanadi.

Toponimlar pragmatik aspekti tadqiqining oxirgi bosqichi toponim ma'nosining emotiv komponentini aks ettiruvchi toponimning intensional holat tahlili bo'ladi. Emotiv komponent turli his-munosabatlarni aks ettiradi, ko'p hollarda bir biriga qatlanadi va muayyan stereotip vaziyatiga kirib boradi.

Xullas, toponim ma'nosining pragmatik aspekti shuni ko'rsatadiki uning komponentlari – baho, motivasiya, emotiv komponent – to'laligicha toponimlarning denotativ gavdalanishiga (tasavvur etilishiga) bog'liq bo'ladi. Toponimlarning ekspressiv bo'yoqli ma'nolarida denotativ axborotlarning roli ma'no uzatishga olib boradi, toponimning obrazli asosini interpretasiyalash natijasida shakllangan olamning qadriyatlar manzarasidan uning bahosi, emotiv-baholi axboroti so'zlovchining madaniy-lisoniy kompetentsiyasiga bog'liqlikda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S.N. Jizzax viloyati toponimlarining semantik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falasafa fanlari doktori dis. avtoref. – Samarqand, 2019.- 45 b
2. Bahrami E. Dictionary of the Avesta. V.2.-Balh, 1359.-1146
3. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi.-Toshkent: Ma'naviyat, 1998
4. Туробов, А. (2016). Қўшма сўз компонентлари хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 55-57.
5. Турниязов, Н., & Туробов, А. (2017). Тил бирликларининг нутққа ко"чирилиши масаласи билан бог" лиқ ба" зи мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(3 (64)), 5-9.
6. Туробов, А. (2019). Қадимги ҳинд тилшунослиги хусусида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)),

21-24.

7. Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этнонимларининг таҳлили. Филол.фан. номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 1999, 8-9-бетлар.

8. Туробов А.М. Самарқанд этноним ва этнонимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 87 б.

9. Мамирова, Д. Ш. (2020). REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

Хасанов Х. Х. Географик номлар маъноси. Тошкент, 1978.

